



Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirish omillari

Latipov Bobosodiq Boboyevich –

Farg'ona davlat universiteti

“Boshlang'ich ta'lim uslubi” kafedrasida katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari nomzodi (PhD),

E-mail: Lbobosodiq@gmail.com | **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0003-0300-1332>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar har tomonlama tahlil qilingan. Xususan, pedagogik bilim, amaliy tajriba, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalari, texnologik savodxonlik, ijodkorlik, kommunikativ madaniyat hamda shaxsiy fazilatlarining bu jarayondagi o'rni chuqur o'rganilgan. Tadqiqot nazariy va empirik usullar uyg'unligida olib borilib, o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar asoslab berilgan. Maqolada olingan asosiy natijalar tahliliy muhokama, ilmiy dalillar va xulosalar orqali yoritilgan bo'lib, ular boshlang'ich ta'lim tizimida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi, kasbiy mahorat, pedagogik bilim, innovatsiya, tajriba.

Факторы формирования профессионального мастерства учителей начальных классов

Аннотация. В данной статье всесторонне проанализированы факторы, влияющие на формирование профессионального мастерства учителей начальных классов. В частности, глубоко изучена роль педагогических знаний, практического опыта, умений эффективно использовать современные образовательные технологии, технологической грамотности, креативности, коммуникативной

культуры и личностных качеств в этом процессе. Исследование проводилось на основе сочетания теоретических и эмпирических методов, обоснованы методические подходы, способствующие развитию профессиональной компетентности учителя. Основные результаты статьи представлены через аналитические обсуждения, научные доказательства и выводы, направленные на совершенствование процесса подготовки педагогических кадров в системе начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, учитель, профессиональное мастерство, педагогические знания, инновации, опыт.

Factors influencing the development of professional mastery of primary school teachers

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the factors influencing the development of professional skills among primary school teachers. In particular, it explores the role of pedagogical knowledge, practical experience, effective use of modern educational technologies, technological literacy, creativity, communicative culture, and personal qualities in this process. The study was conducted using a combination of theoretical and empirical methods, and methodological approaches aimed at enhancing teachers' professional competence were substantiated. The main findings are presented through analytical discussions, scientific evidence, and conclusions that contribute to improving the process of training pedagogical personnel in the primary education system.

Keywords: primary education, teacher, professional competence, pedagogical knowledge, innovation, experience.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichi – shaxs kamolotining eng muhim poydevorini tashkil etadi. Bu bosqichda o'quvchilarga bilim beruvchi o'qituvchining kasbiy mahorati nafaqat ta'lim sifati, balki o'quvchining ijtimoiy hayotga moslashuvi, psixologik rivoji va dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Chunki bola ilk marta ijtimoiy hayotga faol kirishadi, tashqi muhit bilan mustaqil muloqot qilishni o'rganadi, o'z-o'zini anglash, fikrlash va shaxsiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantira boshlaydi. Shu jihatdan olib qarganda, boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning nafaqat bilim olishi, balki uning ruhiy-psixologik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va axloqiy pozitsiyasini shakllantirishda asosiy yo'l boshchi hisoblanadi.

O'qituvchining kasbiy mahorati – bu faqat dars berish bilan cheklanmaydi. U o'z kasbining murakkabligini anglab, har bir o'quvchining ichki dunyosiga kira olishi, uning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi, tarbiyaviy ta'sirni o'tkazishda nozik yondasha olishi bilan o'zini namoyon etadi. Shuningdek, bolalarning dunyoqarashi, qadriyatlari va kelgusidagi shaxsiy pozitsiyasi ko'p jihatdan aynan shu davrda shakllanishi bois, o'qituvchining har bir so'zi, harakati, hatto kayfiyati ham ularda chuqur iz qoldiradi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar (Bruner, Vygotsky, Gardner va boshqalar) ham shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'lim bosqichi inson miyasi va tafakkuri eng tez rivojlanadigan davrdir. Shunday paytda bolaning to'g'ri yo'naltirilishi, o'qituvchi tomonidan rag'batlantirilishi va ijtimoiy-axloqiy normalarga ko'ra shakllantirilishi – kelajakdagi shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatining asosi bo'lib xizmat qiladi. Demak,

boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati nafaqat ta'lim sifati, balki jamiyatning kelajak intellektual salohiyati, ijtimoiy barqarorligi va axloqiy me'yorlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa ushbu bosqichdagi pedagog faoliyatining naqadar mas'uliyatli, murakkab va muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu sababli, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini shakllantirish omillarini chuqur o'rganish dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada aynan shu mahoratni rivojlantiruvchi asosiy omillar tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati – ta'lim-tarbiya jarayonining markaziy unsurlaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Kasbiy mahoratni aniqlovchi, uni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi omillar ko'plab mahalliy va xorijiy pedagogik tadqiqotlarning asosiy e'tibor markazida bo'lib kelmoqda[1.125].

O'zbekistonlik olimlardan H.Yo'ldoshev[10.5] kasbiy mahoratni “o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni har tomonlama rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalar yig'indisi” sifatida ta'riflaydi. Bu yondashuv o'qituvchilik kasbining ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqining kasbiy kompetensiyalar modeli (European Framework of Key Competences, 2018) da esa o'qituvchi uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar sifatida muloqot madaniyati, axborotni boshqarish, raqamli savodxonlik, ijodiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyat belgilab o'tilgan. Bu esa kasbiy mahoratga zamonaviy yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Q. To'xtaboyev[6.17], Sh.Sharipova[7.11] kabi qator tadqiqotchilar boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini, eng avvalo, uning chuqur pedagogik bilimga egaligi bilan bog'laydi. Didaktika, yosh davr psixologiyasi, metodika kabi sohalaridagi bilimlar o'quvchilarning yoshi, ehtiyoji va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda samarali dars berish imkonini beradi. Amaliy tajriba esa nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llashga xizmat qiladi. Maktab amaliyotlari, ustoz-shogird tizimi, tahlil-refleksiya mashg'ulotlari o'qituvchining kasbiy o'sishida muhim o'rin tutadi. G.Karimovanning [4.33] fikriga ko'ra, har bir darsdan keyingi tahlil – o'qituvchining o'z ustida ishlashi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Rasulov fikriga ko'ra, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya vositalari o'qituvchidan yangi ko'nikmalarni talab qiladi. Interfaol metodlar – “fikrlar hujumi”, “klaster”, “rol o'ynash”, “B-B-B strategiyasi” kabi usullar boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsdagi faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalardan foydalanish (taqdimotlar, onlayn testlar, videodarslar, o'quv platformalari) o'qituvchining kasbiy salohiyatini kengaytiradi. UNESCO (2015) hisobotida ta'kidlanishicha, o'qituvchining texnologik savodxonligi XXI asr ta'limida eng muhim kompetensiyalardan biridir.

Kasbiy mahorat faqat standart bilimlar bilan cheklanib qolmaydi. O'qituvchi yangilikka intiluvchan, har bir darsga ijodiy yondashadigan bo'lishi zarur. Bruner (1996) ta'limni konstruktivistik model asosida tashkil etishni taklif qilib, o'qituvchining ijodkorlik bilan o'quvchini kashfiyot sari yo'naltirishi kerakligini uqtirgan[1.134]. Yosh o'qituvchilar uchun yaratilayotgan innovatsion loyihalar, metodik qo'llanmalar, seminar-treninglar ularning ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim omil bo'lmoqda.

UNESCOda O'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatida shaxsiy fazilatlar katta ahamiyatga ega. Sabr-toqat, mehribonlik, halollik, diqqat va ijobiy munosabat – bu fazilatlar ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun dolzarb. Psixolog A.Adlnerning ijtimoiy moslashuv nazariyasiga ko'ra, bolaning ijtimoiy rivojlanishida uni o'rab turgan muhit, ayniqsa, o'qituvchining munosabati hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchining kasbiy mahoratini oshirish uzluksiz jarayondir. Malaka oshirish kurslari, metodik markazlar

faoliyati, fan olimpiadalari va ustoz-shogird tizimi kasbiy o'sishni ta'minlaydi. Pedagog-tadqiqotchilar o'qituvchilarning doimiy ravishda yangi bilimlar bilan boyib borishini ta'lim sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'rsatadilar[8.72].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantiruvchi omillarni aniqlash va ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish maqsad qilingan. Shu asosda tadqiqotning metodologiyasi kompleks va tizimli yondashuvlarga asoslanadi. Tadqiqotning nazariy asoslarini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, tizimli hamda kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etdi. Bu yondashuvlar o'qituvchining kasbiy shakllanish jarayonini keng va chuqur tahlil qilishga imkon yaratadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida har bir o'qituvchining individual ehtiyojlari, imkoniyatlari va kasbiy motivatsiyasi inobatga olindi. Faoliyatga asoslangan yondashuv orqali o'qituvchilarning amaliy faoliyati, dars jarayonidagi pedagogik yechimlari va muloqot uslubi tahlil qilindi. Tizimli yondashuv asosida kasbiy mahorat tarkibiy qismlarining (nazariy bilim, amaliy ko'nikma, kommunikativ malaka, shaxsiy sifatlar) o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqildi. Kompetensiyaviy yondashuv orqali esa pedagogik jarayonni tashkil etish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan kasbiy kompetensiyalar tahlil qilindi.

Tadqiqot metodlari sifatida nazariy tahlil, so'rovnoma, suhbat (intervyu), pedagogik kuzatuv va umumlashtirish usullari qo'llanildi. Nazariy tahlil davomida pedagogika va psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlar, davlat dasturlari, me'yoriy hujjatlar o'rganildi. Amaliy bosqichda esa 50 nafar boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma orqali o'qituvchilarning kasbiy ehtiyojlari, duch kelayotgan muammolari, o'zini rivojlantirishga bo'lgan intilishi haqida ma'lumotlar olindi. Shuningdek, tajribali o'qituvchilar va metodistlar bilan yarimstrukturaviy intervyular o'tkazildi.

Pedagogik kuzatuv esa dars jarayonida o'qituvchining faoliyatini bevosita kuzatish orqali amalga oshirildi. Bu usul orqali o'qituvchilarning metodik yondashuvi, muloqot uslubi, o'quvchilarga individual yondashuvi va darsni tashkil etish darajasi baholandi. Yig'ilgan barcha ma'lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirildi va mavzuga doir xulosalar chiqarildi. Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari belgilandi. Predmet esa ularning kasbiy mahoratini shakllantiruvchi omillar tizimidan iborat bo'ldi. Tadqiqot O'zbekistonning turli hududlarida joylashgan maktablarda olib borildi, bu esa mintaqaviy farqlarni ham hisobga olishga imkon berdi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy asoslarning chuqurligi, qo'llangan usullarining xilma-xilligi va olingan ma'lumotlarning tahlil qilinishi orqali ta'minlandi. Metodik yondashuvlarning uyg'unligi va real pedagogik faoliyatga tayangan holda olib borilgan kuzatuvlar bu tadqiqotning amaliy ahamiyatini oshirdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini shakllantiruvchi asosiy omillar chuqur tahlil qilindi. So'rovnoma, suhbat va kuzatuv natijalari asosida o'qituvchilarning real holati, duch kelayotgan muammolari va mavjud imkoniyatlari o'rganildi. Shu asosda tahlil jarayonida bir nechta muhim yo'nalishlar aniqlab olindi.

Birinchidan, o'qituvchilarning ko'pchiligi kasbiy mahoratni, avvalo, dars berish texnikasi va metodik yondashuvlar bilan bog'lamoqda. So'rovnomada qatnashgan 50 nafar o'qituvchidan 78 foizi "kasbiy mahorat" tushunchasini darsga tayyorgarlik, fan materialini yetkazish va darsni interfaol usullarda olib borish qobiliyati deb baholadi. Bu holat o'qituvchilar orasida kasbiy mahoratni tor doirada tushunish holati mavjudligini ko'rsatadi. Ikkinchidan, kuzatuv natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning aksariyati metodik jihatdan faol

Latipov Bobosodiq Boboyevich

bo'lishiga qaramay, kommunikativ kompetensiyalar, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda differensial yondashuvda kamchiliklarga ega. Dars jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olmasdan, standart yondashuvdan foydalanish holatlari kuzatildi. Bu esa o'qituvchining kasbiy yondashuvida zamonaviy metodikalarga to'liq integratsiya bo'lmaganligini anglatadi. Uchinchidan, o'qituvchilarning shaxsiy fazilatlari ham muhim omil sifatida ko'rilmogda. Suhbatlar davomida aksariyat pedagoglar kasbiy muvaffaqiyatda sabr-toqat, mas'uliyat, bolalarni sevish, muloqotga kirisha olish kabi sifatlar hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidladilar. Bu fikrlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy mahorat faqat texnik yoki metodik ko'nikmalar emas, balki insoniy fazilatlar majmui sifatida qaralmogda.

To'rtinchidan, o'qituvchilarning aksariyati kasbiy rivojlanishning asosiy shakli sifatida malaka oshirish kurslarini tanlaydi. Biroq tahlil shuni ko'rsatdiki, ko'plab o'qituvchilar bu kurslarni formal ravishda o'tmogda, u yerdan amaliy foydalanish darajasi past. Bu holat ta'lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanishning samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, o'qituvchilarning o'z-o'zini baholash va reflektiv yondashuv ko'nikmalari hamon yetarlicha rivojlanmagan. Tadqiqot davomida ko'plab o'qituvchilar darsdan keyingi tahlil, xatolarni tahlil qilish, o'z faoliyatini tanqidiy baholashga yetarli darajada e'tibor qaratmasligini tan oldilar. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Kasbiy mahorat tushunchasini to'laqonli tushunish zarur – u faqat dars berish bilan cheklanmaydi, balki o'qituvchining kommunikativ, reflektiv, innovatsion va shaxsiy kompetensiyalarini ham qamrab oladi.
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish darajasi past – bu borada o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishga ehtiyoj bor.
3. Shaxsiy fazilatlar kasbiy muvaffaqiyatda muhim omil – sabr-toqat, mehribonlik va mas'uliyat kasbiy mahoratning ajralmas qismidir.
4. Malaka oshirish kurslarining sifati va amaliy yondashuvi ustida ishlash lozim – hozirgi holatda ular yetarlicha samarali emas.
5. Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish madaniyatini rivojlantirish muhim – bu o'qituvchining o'sishi uchun asosiy omillardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati – bu faqat dars berish ko'nikmasi emas, balki bolaning ilk rivojlanish bosqichida uning shaxsiyati, tafakkuri, nutqi va axloqiy qarashlarini shakllantira olish salohiyatidir. Ta'lim tizimining eng muhim bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich ta'limda o'qituvchining kasbiy saviyasi, bilim va ko'nikmalari, zamonaviy metodlarni qo'llash qobiliyati, kommunikativ madaniyati va psixologik tayyorgarligi o'quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tahlillar va kuzatuvlarga tayangan holda aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillar bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, bu o'qituvchining pedagogik va metodik bilimlariga, ya'ni ta'lim mazmuni, metodlari, didaktik yondashuvlar va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos pedagogik texnologiyalardan foydalanishiga bog'liq. Ikkinchidan, o'qituvchining doimiy o'z ustida ishlashi, yangiliklarga ochiqqligi va ilg'or tajribalarni o'z faoliyatiga tatbiq etish qobiliyati katta ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini egallash, innovatsion vositalar bilan ishlash, raqamli resurslardan unumli foydalanish kabi ko'nikmalar hozirgi davrda o'qituvchining ajralmas kasbiy fazilatiga aylangan. To'rtinchidan, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, ya'ni sabr-toqatli, mehribon, tashabbuskor va mas'uliyatli bo'lishi uning o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishiga va ularning tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Beshinchidan, kasbiy mahoratni rivojlantirishda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan metodik, moddiy va ijtimoiy ko'maklar, malaka oshirish tizimi, rag'batlantirish siyosati ham muhim o'rin tutadi.

Shu asosda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, malaka oshirish tizimini takomillashtirish va uni amaliyotga yo'naltirilgan, innovatsion yondashuvlar bilan boyitilgan shaklda tashkil etish zarur. Bu jarayonda o'qituvchilarni AKTdan foydalanish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar (masalan, differensial yondashuv, muammoli ta'lim, CLIL, STEAM kabi) bilan tanishtirish muhimdir. Shuningdek, tajribali o'qituvchilar ishtirokida mentorlik tizimini joriy etish, yangi boshlagan o'qituvchilarga ko'maklashuvchi ustozlarni tayinlash, ularning kasbiy o'sishini kuzatish samarali natija beradi.

Yana bir muhim yo'nalish – o'qituvchilarni zamonaviy o'quv-metodik materiallar, texnik vositalar, vizual resurslar bilan ta'minlash hamda ulardan foydalanish bo'yicha treninglar tashkil etishdir. Bu bilan birga, o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun psixologik treninglar, soft skills mashg'ulotlari, jamoaviy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish ham kasbiy mahoratni oshirishda foydalidir. O'qituvchilarning mehnatini rag'batlantirish, moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini oshirish ham o'z samarasini beradi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahorati – bu uzluksiz o'sib boradigan, doimiy ravishda rivojlanishga muhtoj jarayon bo'lib, uni shakllantirish va mustahkamlash uchun tizimli yondashuv, davlat siyosati, jamiyat e'tibori va eng asosiysi – o'qituvchining o'z kasbiga sadoqati zaruriy omillardir. Ushbu yo'nalishdagi islohotlar nafaqat ta'lim sifatini, balki kelajak avlodning yuksak salohiyatli insonlar bo'lib kamol topishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ta'lim tizimining eng muhim hamda poydevor bo'g'inlaridan biri sifatida nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishiga, ularning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini, ijtimoiy faolligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, o'qituvchining kasbiy mahoratini shakllantiruvchi asosiy omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Kasbiy bilim va malaka – pedagogik nazariya, metodika hamda fan sohasidagi chuqur bilimlarga ega bo'lish, ularni amaliyotda qo'llay bilish qobiliyati.
2. Amaliy tajriba – o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, darslarni zamonaviy metodlar asosida olib borish, o'quvchilarning individualligini inobatga olish.
3. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash – AKT, interaktiv platformalar, raqamli resurslardan oqilona foydalanish orqali o'qitish samaradorligini oshirish.
4. Shaxsiy fazilatlar – mehribonlik, sabr-toqat, bag'rikenglik, tashabbuskorlik, ijodkorlik va doimiy o'zini rivojlantirishga intilish.
5. Davlat siyosati va tizimli qo'llab-quvvatlash – o'qituvchilarning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida muntazam ishtiroki, ularning moddiy-texnik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi.

Demak, boshlang'ich ta'limda o'qituvchining kasbiy mahorati ta'lim sifati, o'quvchilarning intellektual salohiyati, ma'naviy barkamolligi va ijtimoiy faol pozitsiyasining shakllanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shu bois bu masalaga tizimli, ilmiy asoslangan va uzluksiz yondashuv zarur. O'qituvchilarning kasbiy o'sishini rag'batlantirish, innovatsion ta'lim muhitini yaratish hamda pedagogik faoliyatning ijtimoiy nufuzini oshirish orqali boshlang'ich ta'lim tizimida sifat jihatidan yangi bosqichga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. J.S.Bruner, Ta'lim jarayonini kashf etish /J.Bruner. – T.: O'qituvchi, 1996. – 224 b.
2. European Commission. Key Competences for Lifelong Learning. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2018. – 20 p.
3. D.Jalolova, Rivojlanayotgan o'qituvchi: kasbiy o'sishning yangi yo'nalishlari, Pedagogik ta'lim. – 2020. – №2. – B. 41–45.
4. G.Karimova, Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKT kompetensiyasini shakllantirish, Zamonaviy ta'lim. – 2021. – №3. – B. 33–36.
5. M.Rasulov, Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari faolligini oshirish yo'llari, Ilmiy izlanishlar. – 2020. – №1(15). – B. 25–28.
6. Sh.Sharipova, O'qituvchi shaxsining kasbiy shakllanishida psixologik omillar, O'zbek pedagogik jurnali. – 2018. – №4. – B. 17–22.
7. Q.To'xtaboyev O'qituvchilarning reflektiv faoliyatini rivojlantirish – kasbiy mahorat garovi // Pedagogik innovatsiyalar. – 2019. №1., – B. 11–15.
8. UNESCO. Teacher Policy Development Guide. – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 72 p.
9. L.Vygotsky Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes / L. Vygotsky. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
10. H.Yo'ldoshev Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy mahoratini shakllantirishda metodik yondashuvlar // Pedagogik mahorat. – 2020. – №2. – B. 5–9.